

**QASHQADARYO VILOYATI IJTIMOIIY INFRATUZILMA
GEOGRAFIYASI (MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI
MISOLIDA).**

Nurmatov A.U

*Shahrisabz davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi*

Xudoyberdiyev B.Sh

*Shahrisabz davlat pedagogika
instituti talabasi. O'zbekiston*

Annotatsiya: *Infratuzilma iqtisodiyot va jamiyatning farovonligini ta'minlaydigan muassasa va tizimlar majumasi bo'lib, uning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan ta'lim ijtimoiy hayotda o'sib kelayotgan yosh avlodni yetuk mutaxassis va komil inson bo'lib tarbiyalanishida asos vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayoning smarali bo'lishida moddiy texnik, axborot va innovatsion tizimlar muhim hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Infratuzilma, ta'lim infratuzilmasi, school bus, demografik taqsimot, demografik bosim, yuklama, migratsiya*

**GEOGRAPHY OF SOCIAL INFRASTRUCTURE OF KASHKADARYA
REGION (On The Example Of Preschool Educational Institutions).**

Nurmatov A.U-Shahrisabz State

Pedagogical Institute is a teacher

Khudoyberdiyev B.Sh - student of Shahrisabz

State Pedagogical Institute. Uzbekistan

Abstract: *Infrastructure is a set of institutions and systems that ensure the well-being of the economy and society, and education, one of its important sectors, plays a fundamental role in educating the young generation growing up in social life as mature specialists and perfect people. Material, technical, information and innovative systems are important for the efficiency of the educational process*

Key words: *Infrastructure, educational infrastructure, school bus, demographic distribution, demographic pressure, load, migration*

Ijtimoiy infratuzilma — bu aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradigan va turmush sifatini belgilaydigan muassasalar hamda xizmatlar tizimidir. Ijtimoiy infrastrukturaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi geografik omillar quyidagilar.

Ta'lim infratuzilmasi — bu ta'lim jarayonini tashkil etish va samarali amalga oshirishni ta'minlaydigan moddiy-texnik, tashkiliy va axborot resurslari majmui. Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning intellektual, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa demografik o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan hududlarda ushbu tizimni kengaytirish va sifatini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo viloyati respublikaning aholisi tez o'sayotgan hududlaridan biri bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalariga ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda.

Geografik joylashuv omili-ta'lim infrastrukturasining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki ta'lim tizimi samarali bo'lishi uchun muayyan hududning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda rivojlanishi zarur. Quydagi nuqtalar geografik joylashuv omilining ta'lim infrastrukturasiga qanday ta'sir ko'rsatishini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Bu esa olis hududlarda joylashgan maktablarning bu ro'yxatlar qatoriga kirib qolishiga sabab bo'luvchi bir qancha omillar bilan bog'liq;

- **Shahar va qishloq hududlaridagi farq.** Geografik joylashuv omili ta'lim infrastrukturasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi, chunki shahar va qishloq hududlari o'rtasida aniq farqlar mavjud. Shaharlar, asosan, yuqori aholi zichligiga ega bo'lib, ta'lim muassasalari ko'proq rivojlangan va yaxshi jihozlangan bo'ladi.

- **Geografik holat va transport aloqalari.** Geografik joylashuvning boshqa bir muhim jihati – transport tizimi va ta'lim muassasalariga kirish imkoniyatlari. Transport va aloqa tizimlari o'quvchilar va o'qituvchilarni ta'lim muassasalariga yetkazib berish uchun zarur bo'lgan infrastrukturaga kiradi.

Aksariyat shahar markazlarida joylashgan ta'lim muassasalari yaxshi transport tizimlari bilan bog'langan, bu esa o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini yaxshilaydi. Ammo chekka va qishloq joylarida, transport tizimining yomonligi sababli, ta'lim muassasalariga yetib borish qiyin bo'lishi mumkin, bu esa ta'lim tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan; **rivojlangan mamlakatlarda** maxsus (*school bus*) tizimi, uzoq masofalardan o'quvchilarni olib kelish yo'lga qo'yilgan.

- **Tabiiy resurslar va ekologik sharoitlar.** Tabiiy resurslar va ekologik sharoitlar ham ta'lim tizimi infrastrukturasiga ta'sir qiladi. Masalan, tabiiy ofatlar (sel, qor ko'chkisi, surilma, zilzila va h.k.) yoki ekologik muammolar (suv tanqisligi, ifloslanish) mavjud hududda ta'lim muassasalarining qurilishi yoki ishlashi uchun qo'shimcha qiyinchiliklar yaratishi mumkin. Bunday holatlarda ta'lim infrastrukturasini tezda tiklanishi yoki rivojlanishi qiyinlashadi.

- **Mintaqaviy iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar.** Geografik joylashuv shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni ham belgilaydi. Ba'zi mintaqalarda yuqori darajadagi iqtisodiy rivojlanish va rivojlangan infrastruktura mavjud bo'lsa, boshqa mintaqalarda resurslar yetishmasligi, iqtisodiy muammolar va

qashshoqlik ta'lim tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Mintaqaviy farqlar, o'z navbatida, ta'limga bo'lgan talabni qondirishda va sifatli ta'lim imkoniyatlarini yaratishda muammolarni keltirib chiqaradi.

- **Demografik taqsimot.** Geografik joylashuv omili aholi taqsimotiga ham ta'sir qiladi. Aholi zichligi yuqori bo'lgan hududlar, odatda, ko'proq ta'lim muassasalariga ega bo'lib, bu ta'lim infrastrukturasini rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. Kam aholi yashaydigan hududlarda esa ta'lim resurslari cheklangan bo'lishi mumkin va bu ta'lim tizimining sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

- **Aholining yosh tarkibi.** Aholining yosh tarkibi ta'lim infrastrukturasining shakllanishida eng muhim omillardan biridir. Yoshlarning ulushi yuqori bo'lgan hududlarda, ya'ni o'rta va kichik yoshdagi aholining ko'p qismi mavjud bo'lsa, ta'lim tizimiga katta talab bo'ladi. Bu, o'z navbatida, yangi ta'lim muassasalarini qurishni, o'qituvchilarni tayyorlashni va o'quv dasturlarini yangilashni talab qiladi. Masalan, yosh aholi soni ko'payganida, ta'lim muassasalari va o'qituvchilar sonini ko'paytirish zarurati tug'iladi. Aholi yosh tarkibi o'zgargan hududlarda ta'lim infrastrukturasini tezda moslashish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

- **Aholi sonining o'zgarishi.** Aholi soni ortishi yoki kamayishi ta'lim infrastrukturasini uchun bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi soni ko'paygan joylarda yangi maktablar, kollejlari va universitetlar qurilishi talab etiladi. Aksincha, aholi soni kamaygan hududlarda ta'lim muassasalarini optimallashtirish yoki yopish zarur bo'lishi mumkin, bu esa mavjud infrastruktura resurslarini samarali taqsimlashni talab qiladi.


- **Migratsiya jarayonlari.** Migratsiya jarayonlari ham ta'lim infrastrukturasining shakllanishiga ta'sir qiladi. Agar hududga ko'chib kelgan yoki chiqib ketgan aholi soni katta bo'lsa, bu ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Ko'proq migratsiya jarayoni kuzatilgan hududlarda, yangi o'qituvchilarni qabul qilish uchun qo'shimcha resurslar va ta'lim muassasalari kerak bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy mobilitet darajasining gorizantal va vertikal harakati ham kuchli ta'sir qilishi tabiiy holdir.

- **Oila qurish va tug'ish darajasi.** Tug'ish darajasi ham ta'lim infrastrukturasining shakllanishiga ta'sir qiladi. Yuqori tug'ish darajasi yosh avlodning ko'payishiga olib keladi va bu, o'z navbatida, ta'lim muassasalari sonini oshirishni talab qiladi. Kam tug'ish darajasi esa ta'lim tizimining resurslarni kamaytirishga va ta'lim muassasalarini optimallashtirishga olib kelishi mumkin.

- **Aholi joylashuvi va urbanizatsiya.** Urbanizatsiya – shaharlarning o'sishi va qishloqlardan shaharlarga ko'chish jarayoni – ta'lim tizimining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shaharlarga ko'chib kelgan aholi o'qish imkoniyatlarini izlab shahar hududlarida ko'proq ta'lim muassasalariga ehtiyoj bildiradi. Aksincha, qishloq

joylarda urbanizatsiya darajasi past bo‘lib, bu yerda ta’lim infrastrukturasini cheklangan bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi barcha omillar ijtimoiy infratuzilmaning bir bo‘g‘ini bo‘lgan ta’lim va uning maktabgacha ta’lim tizimining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 483 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti mavjud bo‘lib, ularda jami 100603 nafar bola tarbiyalanmoqda (1-rasmga qarang).



1-rasm. Qashqadaryo viloyati Maktabgacha ta’lim muassasalari binolari quvvati va tarbiyalanuvchilar soni

Tahlillarga ko‘ra, viloyat va uning ko‘pgina qishloq tumanlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida demografik bosim me‘yor darajasida bo‘lib, Muborak tumanida nisbatan bosim ko‘rsatkichi 17 nafarga, Ko‘kdala tumanida 1572 nafar ortiqcha yuklama mavjud. Qashqadaryo viloyatida maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchi yoshdagi bolalar soni 341794 nafarga teng. Demak maktabgacha ta’lim muassasalarining qamrov darajasi viloyat bo‘yicha 30 % ga teng bo‘lib ya’ni, har 3 ta boladan bittasi maktabgacha ta’lim muassasasiga qamrab olinganini ko‘rish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasalari sig‘im darajasi o‘rtacha 208 nafarni tashkil etib, tumanlar kesimida ham turli xil tafovutlar mavjud. Masalan; Chiroqchi tumanida 312 nafar, Ko‘kdala tumanida 297 nafar, qamashi tumanida 250 nafar, kam yuklama Shahrisabz shahrida 139 nafarni tashkil etgan holda hududlarni yuklama ko‘rsatkichiga ko‘ra quyidagicha ajratish mumkin.

1-guruh. Juda yuqori yuklama (zudlik bilan yangi obyekt kerak)

- **Chiroqchi** – 312
- **Ko‘kdala** – 297
- **Qamashi** – 251

2-guruh. Yuqori yuklama (bosqichma-bosqich qurish tavsiya etiladi)

- **Nishon** – 238
- **G‘uzor** – 230
- **Qarshi** – 228

➤ **Yakkabog‘** – 215

➤ **Qarshi sh** – 211

3-guruh. Nisbatan barqaror hududlar

➤ **Koson** – 190

➤ **Dehqonobod** – 199

➤ **Kitob** – 207

➤ **Kasbi** – 178

➤ **Muborak** – 174

➤ **Mirishkor** – 158

➤ **Shahrisabz** – 165

➤ **Shahrisabz sh** – 139

Juda yuqori yuklama kuzatilgan hududlarda Obyektlar soni yetarli emas, nisbatan barqaror hududlarda viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha yuqori yuklama mavjud, lekin kritik darajada emas. Viloyat bo‘yicha o‘rtacha yuklama 208 nafarni tashkil etadi. 250 nafardan yuqori ko‘rsatkich infratuzilma yetishmovchiligini bildiradi. Qurilish rejalashtirishda viloyat va ma‘muriy hududlardagi demografik o‘sish sur‘ati, aholi zichligi, mavjud bino sig‘imi, qishloq hududlar ulushi hisobga olingan holda kompleks rejalashtirish va mavjud maktabgacha ta‘lim muassasalarini optimallashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzullayev M.A, Nurmatov A.U. Qashqadaryo viloyatida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari infrastrukturasi takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari // “Geodeziya, kartografiya va geoinformatika” Ilmiy-texnik jurnal. ISSN-I-2181-4546. 2025-yil 3-son. B. 336-346
2. Nurmatov A.U. Economic geographical factors affecting the development of the infrastructure of the Educational system // In volume 38 of, of Eurasian Journal of History, Geography and Economics (EJHGE), December 2024. Genius Journals Publishing Group, Brussels, Belgium. P. 47-50
3. Olloyorov N.Q., Jo‘rayev T.T. Ijtimoiy infrastruktura: uning mohiyati, rivojlanishi va istiqbollari. T., 1992.
4. Soliyev A., Nazarov M. O‘zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 212 b.
5. Nurmatov A.U. Zamonaviy ta‘lim infratuzilmasini shakllantirishning ba‘zi masalalari. “Zamonaviy geografiyada innovatsion g‘oyalar: Raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi. 2024-yil. 25-26-oktyabr. B. 313-317
6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma‘lumotlari. www.stat.uz